

**15-16 YOSHLI BOKSCHILARNING HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI  
MAXSUS KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH**

***Shodibek Murotov***

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 15-16 yoshli bolalarning mashg‘ulotlardan charchagan tanalari hamda ruhiyatiga hordiq ularashishga ko‘maklashuvchi harakatli o‘yinlar va ularning turlari, ahamiyati, qo‘llash natijalari, erishiladigan samarasi haqida so‘z boradi. Qolaversa, harakatli o‘yinlarni amalga oshirishda trener va ishtirokchilarning bajaradigan vazifasi, o‘rnii tegishli o‘yinlar asosida izohlab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** harakatli o‘yinlar, murabbiy, o‘yin ishtirokchilari, jismoniy va aqliy faoliy

Azal-azaldan sharq mamalakatlarida harakatli faoliyatga bo‘lgan e’tibor yuqori bo‘lgan. Shu sababli ham yurtimiz tarixida yuksak iz qoldirgan ota-bobolarimiz juda ko‘p. ular nafaqat aqlan, balki jismonan ham sog‘lom, baquvvat bo‘lishgan. Bugungi kunda ham xuddi shu maqsadda kishilar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, uzoq umr ko‘rish kofessitsientini oshirish borasida ham samarali islohotlar amalga tatbiq etilmoqda. Binobarin yosh-avlodning ma’naviy barkamolligi bilan jismonan sog‘lom bo‘lishing mushtarakligi yurt koriga yaraydigan, Vatanga sadoqatli, fidoyi shaxslarning shakllanishiga asos sanaladi.

Harakatli o‘yinlar ham yuqorida ta’kidlanganidek, uzoq tarixga ega bo‘lgan pedagogik jarayon sanaladi. T.Usmonxo‘jayevning ta’kidlashicha: “Qadim vaqtarda ham oilalarda bolalarni ilk yoshidan boshlab topqirlikka, zukkolikka, chaqqonlikka o‘rgatadigan topishmoqlar, o‘yinlar, maqol-masallar asosida tarbiyalab kelingan, kichkintoylarga dastlabki harakat malakalari bilan bog‘liq bo‘lgan harakatli o‘yinlar o‘rgatilgan. Tez aytish, hisoblash, sanoq o‘yinlari, chori-chambar singari o‘yinlar kichik yoshdagi bolalarni o‘ziga jalb qilgan. Bolalar katta bo‘lgan sayin ularga turli xil harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan xalq o‘yinlari o‘rgatilgan.<sup>1</sup>

Dunyo pedagogikasida bolalarni harakatli o‘yinlar asosida tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Sababi, o‘yin faoliyati, qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, bolalarga zavq ularashadi. Juda ko‘p kutilmagan quvnoq holatlarni vujudga keltirishga mo‘ljallangan harakatli o‘yinlar esa bolalarda ijobjiy his-tuyg‘ular uyg‘otishda mug‘im rol o‘ynaydi. Mana shu quvnoq hayajon mobaynida o‘yinlarning juda katta tarbiyaviy kuchi yashiringan bo‘ladi.

<sup>1</sup> Usmonxo‘jaev T.S. “Harakatli o‘yinlar” O‘quv qo‘llanma T.: O‘qituvchi 1992 y.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiyning ta’kidlashicha, harakatli o‘yinlar orasida guruh (jamoa) bo‘lib o‘ynalishga mo‘ljallanganlari ahamiyati va samaraliroqdir. Haqiqatdan ham berilgan topshiriq yoki mashqni jamoa bo‘lib bajarish bolalarda ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga, o‘zaro muloqot madaniyatini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Bizningcha, harakatli o‘yinlar – bu bola jismoniy rivojlanishining usullaridan biri. Ular mushaklardan jismoniy charchoqni chiqarish, bir faoliyat turidan ikkinchisiga hissiy o‘tishga imkon beradi. harakatli o‘yinlar, ayniqsa, bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi, chunki ular zavqlanishning muhim manbayi hisoblanadi. O‘yinlar faol ishlarni, fikrlarni rag‘batlantiradi, olamni qabul qilish, dunyoraqashlarini kengaytirishga, barcha aqliy jarayonlarni takomillashtirishga yordam beradi va bolalarda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Harakatli o‘yinlarning tematikasi, mazmuni, ayniqsa, puxta tahlil etilishi va turli yoshdagi bolalarga muvofiq tarzda tanlanishi lozim. 15-16 yoshli bolalar, endilikda, olamni idrok eta oladigan, ro‘y berayotgan voqeа-hodisalardan o‘ziga xos tegishli xulosalar chiqara oladigan darajada shakllanib ulgurgan bo‘ladi. Bir tomondan, ularni o‘yinlarga qiziqtirish va ishtiyoqini oshirish biroz murakkab bo‘lsa, boshqa tomondan harakatli o‘yinlar asosida ularning charchoqlarini chiqarish, natijani his etish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkizish masalasi ham yuzga chiqadi. Bunda murabbiydan mahorat va tajriba talab etiladi. Demak, harakatli o‘yinlarni amalga oshirishda hamda samaraga erishishda trenerning ham roli muhim hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlarning asosini ma’lum qoidalar asosida harakatlanish va ularga bo‘ysunish birlamchi bo‘ladi. Kichik yoshli guruh o‘quvchilarida mazkur qoidalarga bo‘ysundirish mushkul bo‘lmashligi mumkin, biroq 15-16 yoshli guruh vakillarida buning aksi bo‘lishi mumkin. 15-16 yoshli bolalarda qoidalarga nisbatan reaksiyasi mashqlarni bajarish uchun asta-sekinlik bilan turishlari hamda kirishishlari orqali sezildi. Dastlab, ular bu qoidalarni pedagog rahbarligi ostida bajaratdilar, keyinroq esa bolalar jamoasidagi ushbu qoidalarning ijtimoiy ahamiyatini anglab ba’zi o‘rtoqlari ta’siri ostida amalga oshiriladilar, nihoyat qoidalarni bolalarning ijtimoiy xulq-atvorini bevosita belgilab beruvchi bir oilaga aylanadi. Bu jarayonda tanlangan o‘yinlarning mazmuni muhimdir. Ya’ni murabbiy tomonidan yosh va layoqatlariga mos bo‘lgan harakatli o‘yinlarning tanlanishi ko‘zlangan maqsadga erishishga ko‘maklashadi.

Avvaliga bolalar o‘yin topshirig‘ini tezroq bajarishni xohlashadi va qoidalarni esdan chiqarib qo‘yish holatlari kuzatiladi. Buning sababi o‘yinda g‘olib bo‘lish, yutuqqa erishish birlamch maqsad ekanligidadir. Bu maqsadga erishish yo‘lida, hattoki, bir-biri bilan nizoga borishlari ham, tortishib qolishlari ham mumkin. Bu esa qolgan ishtirokchilarning noroziligiga sabab bo‘lishi, jamoada qarama-qarshilikning yuzga chiqishi, o‘zaro munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Mana shunday holatlarda trener bolalarga yordam berishi, ularga mashqni shoshilmadan,

mohiyatni anglagan holda, qoidalarga to‘liq amal qilgan holda bajarishlari lozimligini uqtirishlari kerak. Bolalar tomonidan qoidalar ongli ravishda va albatta bajarilishi shart ekanligini anglatishda trenerning talablari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish natijasida bolalarning o‘yin jarayoniga bo‘lgan munosabati asta-sekin o‘zgarib boradi, ularda o‘yin harakatlari va qoidalarini tobora aniqroq bajarishga qiziqish va intilish paydo bo‘ladi. Endi o‘yin qoidalarini ilgarigidek atayin buzish hollari ro‘y bermay, qoida buzilishi sabablari ham o‘zgaradi, endi qoida tasodifiy sabablar tufayli buziladi va bola o‘sha zahoti yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatishga harakat qiladi”.<sup>2</sup>

Quyida 15-16 yoshli bolalarga mo‘ljallangan harakatli o‘yinlarni misol qilib keltiramiz: “Pingvin” o‘yinida barcha bolalar ikkita jamoaga bo‘linadi, har bir jamoada bitta kichik to‘p berilgan holatda uni oyoqlari bilan ushlab turgan har bir ishtirokchi boshidan oxirigacha va orqaga olib borishi kerak. Pingvining yurishiga taqlid qilib, hech qanday holatda yugurmaslik va sakramaslik kerak. O‘yinda shartlarni tezroq va aniqroq bajaradigan jamoa g‘alaba qozonadi. Mazkur o‘yin bolalarning jismoniy faolligini oshiradi, ularni tezkorlik, chaqqonlik ko‘nikmalarini shakllantirsa, shoshmashosharlikka yo‘l qo‘ymasdan, aniq harakat qilishga undaydi.

“BILBOK” o‘yinini tashki etish uchun taxminan 45 sm uzunlikdagi qalin ip yoki dantel kerak bo‘ladi. Uning uchlaridan biri tennis to‘piga yopishqoq lenta bilan, ikkinchisi esa plastik stakanning pastki qismiga yopishtirilgan holatga keltiriladi. Bundan tashqari, ipning uchini plastik idish tutqichiga bog‘lashingiz mumkin. O‘yinda bir nechta odam ishtirok etadi. O‘yinchidan to‘pni yuqoriga uloqtirish va uni stakan yoki krujkada ushslash talab qilinadi. Buning uchun ballar beriladi. To‘pni o‘tkazib yuborishdan oldin navbat bilan ushslash kerak. O‘tkazib yuborilgan o‘yinchi bilbokni navbatdagi o‘yinchiga beradi. Belgilangan ballarni birinchi bo‘lib to‘plagan kishi g‘alaba qozonadi.

“Meni tani” o‘yinida ko‘plab bolalar ishtirok etadi. Ishtirokchining ko‘zları bog‘lab qo‘yilgan, u aylananing markaziga aylanadi. Uy egasining signaliga (qarsak chalish) ko‘ra, o‘yinchilar aylana bo‘ylab harakatlana boshlaydilar. Qayta urish harakatni to‘xtatadi. Endi uy egasi o‘yinchilardan birini ko‘rsatishi va uni bilishga harakat qilishi kerak. U o‘yinchiga teginish huquqiga ega va agar u taxmin qila olmasa, undan biron bir narsani aytishni so‘rashi mumkin (hayvonni tasvirlash-urish, tozalash, urish, va hk). Agar uy egasi bolani tanimasa, u ikkinchi marta takrorlaydi.

Keltirilgan barcha o‘yinlarda diqqatni oshirish, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo‘ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunday harakatli o‘yinlar bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

<sup>2</sup> [HARAKATLI O‘YINLAR BOLALARDA JISMONIY MADANIYATNI TARBIYALASHNING ASOSIY METODI VA VOSITASI SIFATIDA. \(znanio.ru\)](http://www.znanio.ru)

Bunday faol ravishda amalga oshiriladigan harakatli faoliyat bolalarning asab tizimini mustahkamlaydi, ulardagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirib muvozanatga keltirib boradi, shuningdek ularda kuzatuvchanlik, topqirlilik, o‘zgarib turgan atrofdagi shart-sharoitlarda mo‘ljal ola bilish, og‘ir vaziyatdan chiqib ketish yo‘lini qidirib topish, tez bir qatorga kelish va uni ijro etish, bunda jasurlik, chaqqonlik, tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishish yo‘lida harakat qilishning zarur usulini mustaqil ravishda tanlay bilish singari fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Usmonxo‘jaev T.S. Harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. – T.:O‘qituvchi, 1992.
2. Xo‘jaev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. (Harakatli o‘yinlari). O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2008.
3. Azizova R.I. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T., 2010.
4. [HARAKATLI O‘YINLAR BOLALARDA JISMONIY MADANIYATNI TARBIYALASHNING ASOSIY METODI VA VOSITASI SIFATIDA. \(znanio.ru\)](#)